INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*
*https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG*
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

# SHARQ VA G‘ARB MNEMONIK TAJRIBALARIDAN TARIX TA’LIMIDA FOYDALANISH

**Nurmuhammedova Nozima Nodir qizi**

NamDPI 2- magistranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan texnalogiyalardan biri mnemonik texnalogiyalar va ularni kelib chiqishi, Sharq va G‘arbda oldin qanday foydalanilgan, endilikda ta’limda qo‘llashimiz mumkin bo‘lgan pedagogik jihatlari to‘g‘risida yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar**

Mnemonika, lokatsiya usuli, Napaleon sandig‘i, xotira g‘ishtlari, major tizimi, mnemonikon, xotira teatri.

**Аннотация**

В этой статье рассказывается об одной из технологий, направленных на повышение эффективности системы образования, мнемонических технологиях и их происхождении, о том, как они использовались раньше на востоке и Западе, о педагогических аспектах, которые мы теперь можем применять в образовании.

**Ключевые слова**

Мнемоника, метод локации, сундук Наполеона, кирпичи памяти, основная система, мнемоникон, театр памяти.

**Annotation**

in this article, one of the technologies aimed at improving the effectiveness of the educational system will be covered about mnemonic technologies and their origins, how they were used before in the East and West, pedagogical aspects that we can now apply in education.

**Keywords**

mnemonics, location method, Napaleon chest, memory bricks, major system, mnemonic, memory theater.

2026-yil 24-fevralda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bilan yoshlar o‘rtasida ochiq muloqot bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz yoshlar bilan ochiq muloqot qilishi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid siyosatning eng yorqin va unitilmas voqeasidir. Bu yilgi muloqot doirasida yoshlarni qo‘llab quvatlash borasida ilgari surilgan 32 ta muhim tashabbus oliy ta’lim soha vakillari uchun dasturilamaldir. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari mazkur ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlashda faollik ko‘rsatib, mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali yoshlar bandligini ta’minlashga munosib hissa qo‘shishi zarur. Zero, oliy ta’lim tizimining samaradorligi mamlakatning barqaror taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu

munosabat bilan o‘rta maxsus va oliy ta’limda chuqur islohotlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqdaki, yuqori malakali yoshlarni tarbiyalash maqsadida yangicha pedagogik texnalogiyalar ishlab chiqilmoqda. Ushbu texnalogiyalardan biri mnemonik texnalogiyalardir. Mnemonika - (yunon tilida mnemonika- “xotirada saqlash san’ati”) – sun’iy assotsatiyalarni shakllantirish orqali xotirani yodlashga va xotira koeffisentini oshirishga yordam beradigan metodlar, usullar majmui hisoblanadi. Taxminlarga ko‘ra, “mnemonika” so‘zini Samoslik Pifagor (miloddan avvalgi VI asr) kiritgan. Yodlash san’ati qadimgi yunon xotira ma’budasi Mnemosyne – to‘qqizta muzalarning onasi sharafiga “mnemonikon” deb atalgan. Bizga ma’lum bo‘lgan mnemonika bo‘yicha birinchi matnlar qadimgi yunonlar tomonidan yaratilgan1 . Yodlash san’ati, shuningdek, ko’plab liturgik matnlarni eslab qolishlari kerak bo‘lgan o‘rta asr rohiblari tomonidan ishlab chiqilgan. Uyg‘onish davrida bilim kuch deb hisoblana boshlaganida (Frensis Bekon: Bilimning o‘zi kuchdir) bilimni o‘z boshida ushlab turish qobiliyati ham yuqori baholangan. Misol uchun, mnemonika bo‘yicha kitoblar Jordano Bruno tomonidan yozilgan. Inkvizitsiya tribunaliga bergan ko‘rsatmasida u Fransiyada xotira bo‘yicha “G‘oyalar soyasida” nomli kitobini nashr etganini xabar qiladi. Biz mnemonikani o‘rganar ekanmiz ularning qo‘llanishida o‘ziga xos farqlarga duch kelamiz. Sharq va G‘arb mnemonik tajribalaridan tarix ta’limida foydalanish faqatgina xotirani kuchaytirib qolmay, murakkab voqealarni va sanalarni oson o‘zlashtirish orqali ta‘lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bizga mnemonikani o‘rganish ota bobolarimizning boy meroslarini o‘rganishdek vazifani ham qo‘yadi. Mnemonik texnalogiyalar tez esda saqlashni ta’minlaydi, hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida samarali yangi usullar sifatida muhim va ta’lim jarayonini rivojlantiradi. Biz mnemonik tajribalarni o‘rganishni qadimgi, o‘rta asrlar va yangi davrga bo‘lib, sharq va g‘arb asosida o‘rganishimiz mumkin va bu mnemonik tajribalarni ta’rixni o‘rganishda qo‘llasak maqsadga muvofiq bo‘lardi. Qadimgi Yunon va Rimda mnemonika sohasida xotira mutaxasislari o‘z nutqlarini eslab qolishda lokatsiyalar ( Joylardan foydalanish ) usulini qo‘llashgan. Mashhur yunon shoiri va notiq Keoslik Simonides miloddan avvalgi V asrda yashagan va u haqida afsona qolgan. Afsonada aytilishicha, Simonides bir ziyofatda shoir sifatida ishtirok etadi. U ziyofatdan bir sabab bilan tashqariga chiqib ketadi va qaytib kirganida bino xarobaga aylangan ekanligini ko‘radi. Binodagi odamlar tanib bo‘lmas holatda edi. U barcha insonlarni joylarini qayerda ekanligini eslab aniqlab beradi. Bu voqea mnemonika usulining “Joylashuv” usuli bo‘lib, “Loki of method” yoki assotsatsiyalar usuli ham deb nomlanadi. Biz bu usuldan tarix fanini o‘rganishda ham qo‘llashimiz mumkin. Masalan, tarixda sulolar almashinuvi yoki biror hukmdorning olib borgan islohatlarini o‘rganishda foydalanamiz. Har kuni ishga, o‘qishga boramiz va bizni yo‘limizda uchratishimiz mumkin bo‘lgan predmetlar bor. Yoki o‘z uyimizdagi buyumlar va xonamizdagi jihozlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Biz bu buyumlarga tarixiy voqealarni kodlab chiqamiz. Rimlik S Metrodorus (mil.avv. IV asr ) 12 qatorli “Xotira g‘ishtlar”idan foydalangan. U ushbu qatorlarni ma’lumotlar bilan to‘ldirgan va minglab ma‘lumotlarni eslab qolgan. Rimlik orator Sitseron Rim senatida foydalangan. Chunki u senatda ko‘pgina nutq so‘zlagan. U o‘zining asarlarida ham foydalangan. Sitseron usulini tarix darslarida qo‘llash o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi. Tarixiy voqealarni sabab va natijalarini anglashda, tarixiy fiklashini

1. Sa'Dullaeva, M. H. (2022). MNEMONIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARIXIY BILIMLARGA XOS KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH. Academic research in educational sciences, 3(10), 206-212

rivojlantirishda yordam beradi. Avvalo tanlangan makon - sinf xonasi yo‘lak yoki tarixiy obyektlarni misol qilishimiz mumkin. Har bir joyga qo‘yilgan ma‘lumot kulguli va obrazli, hissiyotli bo‘lsa esda yaxshiroq qoladi. Ma‘lumotlar tarixiy ketma-ketlikda joylashtiriladi. O‘quvchilar makon bo‘ylab yurib joylardagi ma’lumotlarni qayta qayta aytishadi. Masalan, o‘rta asr islom sivilizatsiyasining yutuqlari

Joy 1- eshik - Bog‘dod kutubxonasi

Joy 2- kreslo - algoritm tasviri

Joy 3- stol - tibbiyot

Joy 4 – rasm – xaritalar

Joy 5 – deraza – arxitektura va san’at

Yuqoridagi na’munadan boshqa tarix mavzularida ham obrazli qilib foydalanishimiz mumkin. Yuliy Sezar ( mil.avv. 100-44) Senat yig‘ilishida ko‘p vazifalarni bir vaqtda baarib, nutqlarni joylashuv bo‘yicha eslab qolgan. Aleksandr Makedonskiy qo‘shindagi barcha askarlarning ism familyasini yaxshi eslab qolgan. Chunki Makedonskiy yuksak xotira egasi edi va mnemonika unga qobilyati qo‘shinni yaxshi boshqarish imkonini beradi. Makedonskiy har bir askarning ism familyasini, ma’lumotini bilishi va ularni ism va familya bilan chaqirishi askarlarda faxr tuyg‘usini uyg‘otgan va ular Aleksandr Makedonskiyga sidqidildan xizmat qilishini ta’minlagan. Aleksandr Makedonskiydan tashqari bu usuldan Amur Temir, Napeleon Bonapart ham foydalanganlar. Napaleon Bonapart “Xotira sandiqlari”, “ Napaleon sandig‘i” deb nomlagan. Bu misollar asosan Yunoniston va Rimdan olingan bo‘lib, bu usul nutqchilik, siyosatda, o‘qishda keng qo‘llanilgan. Dostonlar uzoq vaqtlar esda saqlanib og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan. Odamlar bunda matnli mnemonikadan foydlanagan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi olimlar o‘qituvchilikda matnli misollarni (hikoyalar, misollar) ishlatib, ilmni saqlash va o‘rgatishda mnemonik usullarni qo‘llaganlar. Bu o‘zbek pedagogik fikr tarixida o‘quvchilar xotirasini kuchaytirish uchun matn tahlili va tasviriy ifodalar asosiy vosita bo‘lgan. O‘rta Osiyodan yetishib chiqqan Abu Ali ibn Sino 450 dan ortiq asarlarida minglab o‘simlik nomlarini yoddan bilgan va foydalangan. Unga bunda u haqida aniq ma'lumotni bilishi va assotsatsiya ya’ni bir-biriga bog‘lash usuli qo‘l kelgan. Bugungi kunda ham biz til o‘rganishda foydalanamiz. Yana Al Buxoriy, At Termiziy ko‘plab hadislarni sahihlarini ajratgan va ularni bir ko‘rishda yoddan bilganligi aytiladi. Juzeppe Mezzofantini eslash mumkin, u 57 tilni yaxshi bilgan. S. Zveyj “Kitob sotuvchisi Mendel” har doim nashr etilgan kitoblar haqidagi ulkan bibliografik ma'lumotlarni xotirasida saqlagan. O‘rta osiyolik Farobiy ham 70 dan ortiq tillarni bilgan. Ular tilni o‘rganishda bir so‘zning boshqa tillarda nima deb atalishi haqida taqqoslab chiqqan. Masalan, O‘qimoq inglizchada nima, turkchada nima, ruschada nima deb atalishini bilgan va yodlab chiqqan. Biz bu usuldan tarixdagi sanalarni yod olishda foydalanganmiz. Masalan, 1453 yilda yuz yillik urush tugagan va aynan shu yilda Vizantiya qulagan hisoblanadi. Bu usul bir-biriga taqqoslab o‘rganishda samarali metodlardan biridir. Jordano Bruno kuchli mnemonist edi va u mnemonika maktabini yaratgan. Bruno turli obrazlarni kombinatsiya qilib yodlagan. Uning mashhur g‘oyasi “Theatre of memory” (Xotira teatri) deb nomlagan. Teatr tuzilishi: Xotira joylari- sahna teatr tomi kabi vizual tartibli makon. Har bir o‘rinda ramziy obraz qo‘yiladi. Bruno tasvirlarni kosmologik va mistik ma’no bilan yuklagan. Xotira g‘ildiragi va diagramma yordamida kombinatsiyalarda bog‘lash – yangi ma’no va xotira bog‘lanishlari hosil qiladi. Abu nasr Farobiy ham mnemonist edi va u mnemonikani ta’lim jarayoniga

kiritishni taklif qilgan. Agar mnemonika tarbiyaga kiritilsa o‘quvchilarda tanqidiy tahlilni rivojlantirishda, dunyoqarashni kengaytirishda, aqliy quvvatni oshirib, tez rivojlanishga yordam beradi. Tarixchi Narshaxiy va al-Tabariy, Mirzo Ulug‘bek va boshqa O‘rta Osiyolik olimlar xotira egasi bo‘lishgan. Masalan. Mirzo ulug‘bek 13 martta Qur’on xatm qilgan ekanlar. Hozirgi kunda ham Doktor Zakir Naikning ham Qur’on va boshqa muqaddas kitoblarni yod olgan. “Bunga qanday erishgan” degan savol tug‘iladi. U ma’lumotlarni qismlarga bo‘lib, ko‘proq shug‘illangan va tez-tez qaytargan. Demak biz mnemonik usullardan faqat bir martta emas doimo ishlatsak bizni xotira chegaramiz kengayar ekan. Lekin bizda bir muammo bor. Biz ilm o‘rganishga dangasalik qilamiz. Xotira to‘g‘risida hozirda ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Major tizimi va uning samara-dorlik dajasi bugungi kungacha chet el olimlari Toni Buzan, D.O‘breyn. A.Safronov, S.Matveyev kabi olimlar tomonidan ilmiy o‘ganilgan. Major tizimidan tarixiy sana va vaqtlarni esab qolishda foydalanaishimiz mumkin. Mamlakatimizda yosh mnemonistlar Sh.Rahmonov, M.Abdullayev, Sh.Abduraimova, S.Muydinovlar tomonidan "Mojor" tizimi amaliy o'rganilgan. Tadqiqotlar jarayonida sinaluvchilarning ma'lumotlarni qisqa muddatli xotiradan uzuq muddatli xotiraga o‘tkazib saqlab qola olish darajasining samaradorligi o'rganilgan.

Xulosa shuki, Mnemonik texnalogiyalar faqatgina tarix fanini o‘rganishda emas, balki boshqa sohalarda ham zarur. Mnemonika o‘qitish samaradorligini oshiradi. Zamonaviy dunyoda bolaning har tomonlama rivojlanishi erta yoshdan boshlanadi. Qadimgi Rim yozuvchisi Pliniy Elder shunday degan edi: "Bizning xotiramiz insonni shaxs qiladigan sovg'adir". Mnemonika XX asrdan rivojlangan. Xatto fan sifatida kiritilgan. Odamlar oldin ma’lumotlarni gazeta va jurnal va xatlar orqali bilishga bo‘lsa, endilikda texnalogiya kuchaydi. Shuning uchun XX asr mnemonika rivojlangan asrdir.

**Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. .Frensis A. Xotira va esda tuting: Aristoteldan Shekspirgacha bo'lgan mnemonika, Nashr: 6, Akademie Verlag, 1999, 405 p.
2. Петровский А. V. введение в психологию: учебник. М., 1996. 496 с.
3. Mnemonika va ta’lim texnologiyalari // Pedagogika jurnali. – 2023. – №2.
4. Sa'Dullaeva, M. H. (2022). MNEMONIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARIXIY BILIMLARGA XOS KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH. Academic research in educational sciences, 3(10), 206-212
5. [7]. Solovova N. V. chet tillarni o'qitish metodikasi: asosiy ma'ruza kursi. M., 2002
6. Zayniddinov R. Tarix o‘qitish metodikasi. – T.: Universitet, 2022.
7. Gazeta.uz.>oz>yoshlar-kuni.